ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

DAVLATNING IQTISODIYOTDAGI ROLI VA IQTISODIY SIYOSAT

Kushokova Sevinch Yoqub qizi
TDIU talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23697799

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatning iqtisodiyotdagi roli va iqtisodiy siyosatning samaradorligi bozor iqtisodiyoti sharoitida tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda AQShning rivojlangan bozor iqtisodiyoti modeli hamda O‘zbekistonning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonidagi yondashuvlari solishtiriladi. Davlat aralashuvining institutsional asoslari, tartibga solish mexanizmlari, makroiqtisodiy boshqaruv usullari va iqtisodiy islohotlarning natijadorligi baholanadi.

Kalit so‘zlar: davlatning iqtisodiyotdagi roli, iqtisodiy siyosat, bozor iqtisodiyoti, institutsional islohotlar, tartibga solish, AQSh tajribasi, o‘zbek modeli, davlat aralashuvi.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda davlatning iqtisodiyotdagi o‘rni va iqtisodiy siyosatning samaradorligi global va milliy darajada eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy tizimidagi beqarorliklar, pandemiya oqibatlari, geoiqtisodiy raqobatning kuchayishi hamda iqtisodiy xavfsizlik masalalarining dolzarb mavzuga aylanishi davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini qayta baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon davlatning tartibga soluvchi kuch sifatidagi rolini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi mamlakatning iqtisodiy modeli, institutsional shakllanish bosqichi, mehnat bozori rivoji, ijtimoiy talablar va strategik ustuvorliklar bilan belgilanadi. Rivojlangan davlatlarda tartibga solish mexanizmlari asosan raqobatni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, transformatsiya jarayonidagi davlatlarda davlat ishtirokining nisbatan faol bo‘lishi iqtisodiy o‘sishning boshlang‘ich bosqichlarini qo‘llab-quvvatlash uchun zaruriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi. Ushbu farmon iqtisodiy boshqaruvning yangi institutsional mexanizmlarini joriy etish, davlatning iqtisodiy jarayonlardagi rolini optimallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda bozor mexanizmlarining samaradorligini kuchaytirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega”.[1] Mazkur normativ-huquqiy hujjat mamlakat iqtisodiy siyosatini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish va davlat boshqaruvi tizimini transformatsiya qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu bois tadqiqotda farmonning mazmuni, maqsadlari va uning iqtisodiy boshqaruvga ta’siri alohida ilmiy tahlil obyekti sifatida qaraladi.

O‘zbekistonning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni davlatning iqtisodiyotdagi rolini optimallashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish, raqobatni kuchaytirish va institutsional islohotlarni jadallashtirish kabi ustuvor vazifalarni ilgari surdi. Mazkur jarayon xalqaro tajribani o‘rganish, makroiqtisodiy boshqaruvning zamonaviy usullarini qo‘llash hamda milliy sharoitga moslashtirilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish ehtiyojini oshirmoqda.

[1] https://lex.uz/mact/-4154478

Ushbu tadqiqotning maqsadi — bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning o‘rni va iqtisodiy siyosatining samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish hamda AQSh kabi rivojlangan bozor iqtisodiyotlari tajribasi bilan O‘zbekiston modeli o‘rtasidagi farqlarni aniqlashdir. Tadqiqot vazifalari sifatida davlat aralashuvi nazariyalarini umumlashtirish, turli davlat modellarining solishtirma tahlilini amalga oshirish, O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda milliy iqtisodiyotni samarali tartibga solish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish belgilangan.

Adabiyotlar sharhi

Davlatning iqtisodiyot har tomonlama o’zining ta’sirini ko’rsatadi. Davlatning iqtisodiyotdagi roli va iqtisodiy siyosat yuritish bo‘yicha ko’plab olimlar izlanishlar olib borgan.

Jumladan, Guido Tabellini o’zining “The Role of the State in Economic Development” nomli maqolasida iqtisodiy rivojlanishda davlatning o‘rni haqida yozgan. Unda iqtisodiy yutuqlarning muhim omili sifatida hukumatning to‘g‘ri siyosat yuritishdagi manfaati yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy va siyosiy erkinlashtirishdan keyingi jarayonlar bo‘yicha mavjud dalillar ko‘rib chiqilib, siyosiy erkinlikning oshishi hukumatni samarali iqtisodiy siyosat olib borishga undaydimi, degan savolga javob aniqlangan [1].

Davlatning zamonaviy dunyoda institutsional yondashuvlar orali talqin etish esa Kushnirning “Institutional Approach to the Role of the State in the Economy: Modern Features” nomli maqolasi yaqqol misoli hisoblanadi. Turli nazariy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi iqtisodiy taraqqiyot bosqichida davlatning bozorni tartibga solishdagi ahamiyati qayta ko‘rib chiqilmoqda. Davlat institutsional tizimni barqarorlashtiruvchi kuch bo‘lishi bilan birga, uning yangilanishiga ham sababchi bo‘ladi. Tadqiqotda davlat tomonidan iqtisodiy qoidalarni belgilash va o‘zgartirish, shuningdek tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali yirik ijtimoiy guruhlarni boshqarish eng keng tarqalgan mexanizm ekani asoslangan [2].

Giorgi Kharshiladze o‘zining “State’s role and methods of impact on its economy in a transition period” nomli maqolasida o‘tish davrida iqtisodiyotning transformatsiya jarayonlari va davlatning ushbu jarayondagi o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda olim davlatni tartibga solishining maqsadlari, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmaning shakllanishiga xos jihatlar hamda institutsional o‘zgarish mexanizmlari muhokama qilingan. O‘tish davrida davlatning iqtisodiy funksiyalari qayta ko‘rib chiqiladi va boshqaruvning markazlashgan shakllarini isloh qilish zarurati yuzaga keladi. Bu yangi iqtisodiy boshqaruv tizimlarini joriy etish, davlatning iqtisodiy ustuvorligini kamaytirish va xususiylashtirishni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi [3].

Shu bilan birga, Abigail Naa Korkor va boshqa olimlar tomonidan “An Investigation of the spatial dependence between economic policy uncertainty and economic activities in emerging market economies” nomli maqolasida iqtisodiy siyosatdagi noaniqlik tendensiyalari va uning iqtisodiy faoliyatga ta’sirini tushunish juda muhim bo‘lib bormoqda, chunki u iqtisodiy jarayonlarga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Savdo va globallashuv davrida rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari bir-biridan mustaqil emasligi aniq. Natijada, bir mintaqadagi iqtisodiy faoliyat boshqa mintaqalardagi iqtisodiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu tadqiqotda olimlar hududiy tahlil yondashuvidan foydalanib, EME davlatlari o‘rtasidagi fazoviy bog‘liqliklar bo‘yicha yangi empirik dalillar taqdim etamiz. Maqsad iqtisodiy siyosatdagi noaniqlik va iqtisodiy faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ularning geografik yaqinligidan kelib chiqadimi-yo‘qmi, shuni aniqlashdir [4].

Ashurova Zuxra “Iqtisodiyotning davriy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish” nomli maqolasida iqtisodiyotning davriy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish muammolarini tahlil qiladi. Iqtisodiyotda yuzaga keladigan o‘sish, pasayish, tiklanish va qisqa muddatli turish kabi davriy to‘lqinlarning davlat siyosati orqali boshqarilishining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola pul-kredit

siyosati, byudjet siyosati va fiskal siyosat kabi asosiy iqtisodiy vositalarni tahlil qiladi va ularning iqtisodiy tsikllarni tartibga solishdagi rolini aniqlaydi. Davriy rivojlanishlarning yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan muammolar, masalan, inflatsiya va ishsizlik, hamda ular uchun taklif qilinadigan chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Davlat iqtisodiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish maqsadida qanday chora-tadbirlarni qo‘llashi kerakligi yoritiladi”[5]

“Zamonaviy Iqtisodiy Islohotlar Sharoitida Davlat Moliyaviy Siyosatini Takomillashtirishning Ustuvor Yo‘nalishlari” nomli maqolada Begali Xamrayev O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirishning dolzarb yo‘nalishlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Jumladan, byudjet siyosatining strategik rejalashtirilishi, xarajatlar samaradorligini oshirish, soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish, davlat qarzini boshqarish va mahalliy moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlar chuqur o‘rganilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda rivojlangan davlatlar va O‘zbekiston iqtisodiy boshqaruv tajribasi nazariy manbalar asosida solishtirildi, fiskal va monetar siyosat, raqobat tartibga solinishi va ijtimoiy dasturlar bo‘yicha funksional tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, xalqaro indekslar asosida davlat siyosatining ta’siri solishtirma tahlil orqali baholandi va O‘zbekiston uchun mos boshqaruv modeli kontseptual modellashtirish usuli bilan ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Davlatning iqtisodiyotdagi roli har bir mamlakatning iqtisodiy tizimi va siyosiy yo‘nalishiga bog‘liq. Hukumat qaysi strategiya yoki yo‘nalish orqali jamiyatni tartibga solish, iqtisodiyotni nazorat qilish va siyosat olib borishni o‘zida mavjud tajriba hamda jahon tajribasidan kelib chiqqan holda belgilaydi. Hozirgi kunda yurtimiz iqtisodiyotida olib borilayotgan asosiy chora-tadbirlar ichki tizimni bozor iqtisodiyotiga o‘tgazishga qaratilgan. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud bo‘lgan davlat, AQShni biz namuna sifatida olamiz hamda tahlil qilib chiqamiz.

AQSh bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritadigan rivojlangan mamlakat hisoblanadi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklangan, asosan regulyator va tartibga soluvchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda esa ijtimoiy yo‘nalishli bozor iqtisodiyoti tizimi asosida davlatning roli iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, investitsiyalarni rag‘batlantirish, xususiy sektor va ijtimoiy dasturlarni muvozanatlash kabi funksiyalar bilan kengaytirilgan hisoblanadi. (1-jadval)

1-jadval.

AQSh va O‘zbekiston iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi taqqoslama jadvali


Ko‘rsatkich	**AQSh Bozor iqtisodiyoti**	**O‘zbekiston Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti**
Davlat aralashuvi	Minimal darajada, bozor mexanizmlari ustuvor	Faol, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash
Soliq va fiskal siyosat	Soliq tizimi bozor asosida tartibga solinadi	Soliq va fiskal siyosat iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni muvozanatlash uchun qo‘llanadi
Ijtimoiy dasturlar	Minimal, ijtimoiy barqarorlikni bozor o‘zi ta’minlashga harakat qiladi	Keng qamrovli ijtimoiy dasturlar orqali aholiga yordam ko‘rsatiladi

Ko‘rsatkich	AQSh Bozor iqtisodiyoti	O‘zbekiston Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti
Innovatsiya va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash	Davlat ilmiy va texnologik tadqiqotlarda qo‘llab-quvvatlash beradi, ammo xususiy sektor yetakchi	Davlat investitsiyalarni rag‘batlanti-rish orqali innovatsiyalarni rivojlan-tiradi
Raqobat va monopoliyalarning tartibga solinishi	Anti-monopoliyaviy qonunlar, bozor regulyatsiyasi	Davlatning regulyator funktsiyasi kuchli, monopoliyalarni cheklash va sektorlarni muvozanatlash

AQShda bozor kuchlari, ya’ni talab, taklif, narx va raqobat iqtisodiy jarayonlardagi so’ngi hal etuvchi qarorlarni belgilasa, O‘zbekistonda davlat regulyator va investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi sifatida faol ishtirok etadi. O‘zbekistonda fiskal siyosat iqtisodiy va ijtimoiy strategiya bilan integratsiyalashgan holatda tuzilgan. Yurtimizda davlat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda faol rol o‘ynaydi, AQShda esa bozor mexanizmi asosiy qonun chiqaruvchidir.

Hozirgi globallashuv tez fursatlarda kechayotgan dunyoda to’g’ri iqtisodiy tizimni tanlash har bir hukumat rahbari uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining “Agar biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo‘lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo‘lsak, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz shart. Yagona yo‘limiz shu...”[2] deb keltirishi ham bejizga emas.

Shu sababli biz dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribalariga asoslangan holda o’zimizning o’zbek modelimizni ishlab chiqishimiz lozim. Quyida keltirilgan 1-rasmda davlatning iqtisodiy boshqaruv tizimini, ijtimoiy va investitsion siyosatni, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va makroiqtisodiy barqarorlikni uyg‘unlashtiradi. Xorijiy rivojlangan davlatlar tajribasi asosida: regulyator funktsiyasi kuchaytiriladi, fiskal va monetar siyosat uyg‘unlashtiriladi, xususiy sektorni rag‘batlantirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yaratiladi.




1-rasm. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan iqtisodiy boshqaruv tizimini

Shuningdek, hukumat tomonidan Fiskal va monetar siyosatini olib borish orqali makroiqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi. Davlatning regulyator funktsiyasi raqobat va monopoliyalarni nazorat qiladi, sektorlarni muvozanatlashni ta’minlaydi. Innovatsiyalar va investitsiyalarni rag‘batlantirish xususiy

[2] https://www.gazeta.uz/oz/2018/12/07/nutq/

sektorni rivojlantiradi, iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlarini yaratishda o‘z kuchini ko‘rsatadi. Ijtimoiy dasturlar orqali aholining barqarorligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash mumkin.

Davlat aralashuvi ko‘lamini empirik jihatdan baholash maqsadida AQSh va O‘zbekistonda davlat xarajatlarining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati taqqoslandi (2-rasm) [7]. Ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda bu ko‘rsatkich 2016–2019-yillarda 35–36 foiz atrofida bo‘lgan, 2020–2021-yillarda pandemiya davrida 44,7 va 43,2 foizgacha oshgan hamda 2022-yildan boshlab 37 foiz atrofida barqarorlashgan. O‘zbekistonda esa davlat xarajatlarining ulushi 2016-yildagi 20,5 foizdan 2022-yilda 30,0 foizgacha o‘sib, keyingi yillarda 26–29 foiz oralig‘ida saqlanib turibdi. Shu bilan birga, xarajatlar ulushi davlat aralashuvining shakli va mexanizmini to‘liq ifodalamaydi: AQShda davlat asosan bozor qoidalarini belgilovchi va raqobatni tartibga soluvchi regulyator sifatida namoyon bo‘lsa, O‘zbekistonda investitsiyalarni rag‘batlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda bevosita faol ishtirok etadi.



2-rasm. AQSh va O‘zbekistonda davlat xarajatlarining YaIMga nisbati, 2016–2025-yillar (foizda). Manba: [7] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Xulosa va takliflar

O‘rganishlar natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, davlatning iqtisodiyotdagi o‘rni mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichi, siyosiy tizimi va institutsional imkoniyatlariga bevosita bog‘liq ekan. Rivojlangan davlatlar, xususan AQSh tajribasi minimal davlat aralashuvi asosida bozor mexanizmlariga ustuvorlik berishini ko‘rsatadi, O‘zbekistonda esa ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeli davlatning faol ishtiroki zarur bo‘lgan sohalar mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bois iqtisodiy boshqaruv modeli har bir mamlakatning o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga mos shakllanishi lozim.

O‘zbekiston va AQSh tizimlarining taqqoslanishi davlatning iqtisodiyotdagi funksiyalari turlicha bo‘lishiga qaramay, har ikkala tizim ham bozor tamoyillariga asoslanishini ko‘rsatadi. AQShda raqobatni rag‘batlantirish, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va innovatsiyalarni xususiy tashabbus orqali rivojlantirish asosiy yo‘nalish bo‘lsa, O‘zbekistonda davlat makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy himoyani ta’minlash va iqtisodiy islohotlarni boshqarishda yetakchi rol o‘ynaydi. Bu farq davlatning iqtisodiy vazifalari jamiyatning ijtimoiy talablaridan kelib chiqishini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O‘zbekiston iqtisodiy siyosatini modernizatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Xususan, fiskal va monetar siyosatning uyg‘unlashuvi, regulyator tizimni kuchaytirish, raqobatni rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish iqtisodiy

o‘sishni jadallashtiradi. O‘zbekiston iqtisodiy modelining asosiy ustunligi — bu davlatning barqarorlikni ta’minlashdagi samarali roli bo‘lib, uni bozor mexanizmlari bilan optimallashtirish eng maqbul yechim sifatida qaraladi.

Izlanishlar natijasida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

Birinchisi, fiskal siyosatni modernizatsiya qilish va natijadorlikka yo‘naltirish, ya’ni davlat xarajatlari tarkibini optimallashtirish, budjet mablag‘larining samaradorligini baholash tizimini joriy etish hamda soliq yengilliklarini faqat yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi sektorlar uchun qo‘llash lozim.

Ikkinchisi, raqobatni rivojlantirish va regulyator tizimni kuchaytirish lozim. Bu esa monopoliyalarning qisqarishi, bozorlar ochiqligi, shaffof narx mexanizmi va xususiy sektor faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy muhitni sog‘lomlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guido Tabellini, “The Role of the State in Economic Development”, CESifo Working Paper No. 1256, IGIER Bocconi University 5, Via Salasco 20136 Milan Italy, https://www.ifo.de/DocDL/cesifo1_wp1256.pdf
2. Kushnir A. M. Institutional Approach to the Role of the State in the Economy: Modern Features // ECONOMIC PROBLEMS AND LEGAL PRACTICE. 2023. Vol. 19. № 4. P. 134-140. (in Russ.) EDN: FSAKIY, https://urvak.org/articles/pr-6128-vypusk-4-institutsionalnyy-podkhod-k-roli-/
3. Giorgi Kharshiladze, “State’s role and methods of impact on its economy in a transition period” // The Central European Journal of Social Sciences and Humanities, Year 2021, Issue 1(71), Pages 77-99, http://dx.doi.org/10.26399/meip. 1%2871%29.2021.04/g.kharshiladze.
4. Abigail Naa Korkor Adjei, George Tweneboah, Peterson Owusu Junior, “An Investigation of the spatial dependence between economic policy uncertainty and economic activities in emerging market economies”, Research in Globalization, Volume 11, 2025, 100308, https://doi.org/10.1016/j.resglo.2025.100308 .
5. Z.Y.Ashurova “Iqtisodiyotning davriy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish”, “International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory”, 2024 Vol 2 Issuse 8, pp: 50-56.
6. Xamrayev B. (2025). Zamonaviy Iqtisodiy Islohotlar Sharoitida Davlat Moliyaviy Siyosatini Takomillashtirishning Ustuvor Yo‘nalishlari. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 4(8), 67–69. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/zdaf/article/view/101874
7. International Monetary Fund, World Economic Outlook (2026-yil oktabr yangilanishi): General government total expenditure, % of GDP — AQSh va O‘zbekiston, 2016–2025. Ma’lumotlar Measured World platformasi orqali olingan: https://measuredworld.com/countries/usa/economy/government-finances ; https://measuredworld.com/countries/uzbekistan/economy/government-finances.